

## ADVOKATLARNING INTIZOMIY JAVOBGARLIGIDA MUTANOSIBLIK PRINSIPINI TA'MINLASHNING NAZARIY-HUQUQIY MASALALARI

Saddam Qodiraliyev

TDYU mustaqil izlanuvchisi

[s.qodiraliyev@tsul.uz](mailto:s.qodiraliyev@tsul.uz)

Toshkent, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20641358>

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi advokatlarning intizomiy javobgarligida mutanosiblik prinsipining nazariy-huquqiy mazmuni, intizomiy jazo choralarini tanlashdagi o'rni hamda advokat mustaqilligi bilan kasbiy mas'uliyat o'rtasidagi muvozanat masalalari tahlil qilingan. Tezisdagi intizomiy javobgarlik faqat jazolash mexanizmi emas, balki advokatura institutining obro'sini saqlash, ishonch bildiruvchi shaxs huquqlarini himoya qilish va kasbiy standartlarning barqaror amal qilishini ta'minlash vositasi sifatida baholangan. Shuningdek, intizomiy ish yuritishda nojo'ya xatti-harakatning og'irligi, oqibatlari, ayb shakli, takroriyliigi, advokatning avvalgi intizomiy holati va protsessual kafolatlar inobatga olinishi zarurligi asoslantirilgan.

**Kalit so'zlar:** advokat; intizomiy javobgarlik; mutanosiblik prinsipi; kasbiy mustaqillik; intizomiy jazo; malaka komissiyasi; kasb etikasi; protsessual kafolatlar.

**Аннотация.** В данном тезисе анализируются теоретико-правовое содержание принципа соразмерности в дисциплинарной ответственности адвокатов, его значение при выборе дисциплинарного взыскания, а также вопросы баланса между независимостью адвоката и профессиональной ответственностью. Дисциплинарная ответственность рассматривается не только как механизм наказания, но и как средство защиты престижа адвокатуры, прав доверителя и устойчивого соблюдения профессиональных стандартов. Обосновывается необходимость учета характера проступка, его последствий, формы вины, повторности, предыдущего дисциплинарного состояния адвоката и процессуальных гарантий.

**Ключевые слова:** адвокат; дисциплинарная ответственность; принцип соразмерности; профессиональная независимость; дисциплинарное взыскание; квалификационная комиссия; профессиональная этика; процессуальные гарантии.

**Abstract.** This thesis analyzes the theoretical and legal content of the principle of proportionality in the disciplinary liability of lawyers, its role in selecting disciplinary sanctions, and the balance between professional independence and accountability. Disciplinary liability is considered not merely as a punitive mechanism but as an instrument for protecting the reputation of the bar, the rights of clients, and the stability of professional standards. The thesis substantiates the need to consider the nature and consequences of misconduct, the form of guilt, recurrence, the lawyer's previous disciplinary record and procedural safeguards.

**Keywords:** lawyer; disciplinary liability; principle of proportionality; professional independence; disciplinary sanction; qualification commission; professional ethics; procedural safeguards.

Advokatura instituti huquqiy davlat va odil sudlov tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Advokat fuqarolar va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish orqali nafaqat alohida shaxs manfaatlariga, balki butun jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli advokatlik faoliyatiga qo'yiladigan kasbiy va axloqiy talablar boshqa ko'plab kasblarga nisbatan yuqori bo'lishi tabiiydir. Mazkur talablarning buzilishi advokatning shaxsiy mas'uliyati bilan cheklanib qolmay, advokatura institutining ijtimoiy ishonchiga ham ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining “Advokatura to'g'risida”gi Qonunida advokat o'z kasbiy faoliyatida amaldagi qonunchilik talablariga, Advokatning kasb etikasi qoidalariga, advokatlik siri va advokat qasamyodiga rioya etishi shartligi belgilangan. Ushbu majburiyatlarning buzilishi intizomiy javobgarlik masalasini keltirib chiqaradi. Biroq intizomiy javobgarlikni qo'llashda asosiy masala faqat nojo'ya xatti-harakatni aniqlash emas, balki unga nisbatan adolatli, asoslantirilgan va mutanosib ta'sir chorasini tanlashdan iboratdir<sup>1</sup>.

Mutanosiblik prinsipi advokatlarning intizomiy javobgarligi tizimida alohida ahamiyatga ega. Chunki advokatga nisbatan qo'llaniladigan har qanday intizomiy chora uning kasbiy obro'siga, mustaqilligiga, mijozlar bilan munosabatiga va kelgusidagi faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun intizomiy jazo na haddan tashqari yengil, na haddan tashqari og'ir bo'lishi kerak. U sodir etilgan xatti-harakatning huquqiy va axloqiy mazmuni, oqibati va advokatning shaxsiga oid holatlar bilan mos bo'lishi zarur.

Advokat intizomiy javobgarligining o'ziga xosligi shundaki, u davlat xizmatchisi yoki xodimning oddiy xizmat intizomidan farq qiladi. Advokat mustaqil kasb egasi sifatida ishonch bildiruvchi shaxs manfaatini himoya qiladi, zarur hollarda davlat organlari, mansabdor shaxslar yoki boshqa subyektlarning pozitsiyasiga qarshi huquqiy e'tiroz bildiradi. Agar intizomiy javobgarlik mexanizmi nomutanosib qo'llansa, u advokatni qonuniy va faol himoya pozitsiyasidan tiyib qo'yuvchi omilga aylanishi mumkin. Shu jihatdan intizomiy javobgarlik advokatni bo'ysundirish vositasi emas, balki kasbiy standartlarni adolatli himoya qilish mexanizmi bo'lishi lozim.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Advokatlar roli to'g'risidagi asosiy prinsiplari advokatlarning o'z kasbiy vazifalarini qo'rqitish, to'sqinlik, tazyiq yoki noo'rin aralashuvlarsiz bajarishi zarurligini e'tirof etadi. Ushbu xalqaro yondashuv advokatning mustaqilligi intizomiy javobgarlikdan mutlaqo ozodlik degani emasligini, aksincha, javobgarlik faqat aniq, oldindan belgilangan, adolatli va kasbiy mustaqillikka putur yetkazmaydigan tartibda qo'llanishi kerakligini ko'rsatadi<sup>2</sup>.

Mutanosiblik prinsipining birinchi tarkibiy elementi intizomiy nojo'ya xatti-harakatning xususiyatini to'g'ri baholashdir. Har qanday kamchilik avtomatik ravishda og'ir intizomiy jazo qo'llash uchun asos bo'la olmaydi. Masalan, advokatning protsessual muddatlarni bir martalik ehtiyotsizlik tufayli buzishi, ishonch bildiruvchi shaxs bilan aloqa yuritishda sustkashlikka yo'l qo'yishi yoki kasb etikasi qoidalaridagi ayrim talablarni lozim darajada bajarmasligi turli huquqiy bahoni talab qiladi. Bunday holatlarda jazo xatti-harakatning real xavflilik darajasiga mos bo'lishi kerak.

Ikkinchi element xatti-harakat oqibatlarini aniqlash bilan bog'liq. Advokat tomonidan yo'l qo'yilgan kamchilik ishonch bildiruvchi shaxs manfaatlariga jiddiy zarar yetkazganmi, sud yoki

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi. (1996). Advokatura to'g'risidagi Qonun. <https://lex.uz/docs/-54503>

<sup>2</sup> United Nations. (1990). Basic Principles on the Role of Lawyers. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/basic-principles-role-lawyers>

boshqa organlarda ishning ko‘rilishiga salbiy ta’sir qilganmi, advokatura obro‘sig‘a putur yetkazganmi yoki bunday oqibatlar yuz bermaganmi — bularning barchasi intizomiy chora tanlashda hal qiluvchi mezon bo‘lishi lozim. Oqibatlar baholanmagan intizomiy qaror tashqi tomondan qonuniy ko‘rinsa-da, mazmunan adolatsiz bo‘lishi mumkin.

Uchinchi element ayb shaklini hisobga olishdir. Qasddan sodir etilgan kasbiy majburiyat buzilishi bilan ehtiyotsizlik oqibatida yuz bergan kamchilik bir xil baholanmasligi kerak. Advokatning o‘z harakati oqibatini anglagani, uni istagani yoki unga ong‘li ravishda yo‘l qo‘ygani intizomiy javobgarlik og‘irligini oshiruvchi omil sifatida e’tiborga olinishi mumkin. Aksincha, obyektiv sharoitlar, ish hajmining keskin ortishi yoki noto‘g‘ri tushunish natijasida sodir bo‘lgan kamchilikda yengillashtiruvchi holatlar mavjud bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

To‘rtinchi element takroriylik va advokatning avvalgi intizomiy holatidir. Bir martalik va ilgari intizomiy javobgarlikka tortilmagan advokat tomonidan sodir etilgan kamchilik bilan muntazam ravishda kasbiy majburiyatlarga beparvo munosabatda bo‘lish holati o‘rtasida jiddiy farq mavjud. Shu sababli intizomiy organning qarorida advokatning oldingi faoliyati, kasbiy obro‘si, shikoyatlar tarixi va avvalgi ogohlantirishlardan tegishli xulosa chiqargan-chiqarmagani alohida baholanishi zarur.

Yevropa advokatlar kengashlari va huquq jamiyatlari kengashi tomonidan qabul qilingan kasbiy prinsiplarda advokatning mustaqilligi, ishonch va shaxsiy halollik, kasbiy sir, mijoz manfaatlariga sadoqat kabi mezonlar advokatlik kasbining asosiy qadriyatlari sifatida ko‘rsatilgan. Ushbu qadriyatlar intizomiy javobgarlikni qo‘llashda ham mezon vazifasini bajaradi: jazo advokatlik kasbining mazkur qadriyatlarini himoya qilishi, biroq ularni asossiz cheklamasligi kerak<sup>3</sup>.

Mutanosiblikni ta‘minlash faqat jazo turini tanlash bilan cheklanmaydi. Intizomiy ish yuritishning o‘zi ham mutanosib bo‘lishi zarur. Advokatga nisbatan ish qo‘zg‘atish, materiallarni to‘plash, tushuntirish olish, dalillarni baholash, qaror qabul qilish va qaror ustidan shikoyat qilish tartiblari oldindan aniq belgilangan bo‘lishi kerak. Aks holda, hatto yakuniy jazo nisbatan yengil bo‘lgan taqdirda ham, intizomiy jarayonning o‘zi advokatga ortiqcha bosim ko‘rsatishi mumkin.

Intizomiy ish yuritishda advokatning protsessual kafolatlari muhim o‘rin tutadi. Advokat shikoyat mazmuni bilan tanishish, o‘z tushuntirishlarini berish, dalillar taqdim etish, vakil orqali ishtirok etish, majlisda fikr bildirish va qaror ustidan shikoyat qilish huquqiga ega bo‘lishi kerak. Bu kafolatlar faqat rasmiy tartib sifatida emas, balki intizomiy qarorning qonuniyligi va ishonchligini ta‘minlovchi zarur shart sifatida qaralishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2025-yilda ro‘yxatdan o‘tkazilgan buyrug‘i bilan tasdiqlangan malaka komissiyalari to‘g‘risidagi nizom advokatlarga nisbatan intizomiy masalalarni ko‘rib chiqishda muhim protsessual asoslardan biri hisoblanadi. Mazkur tartibning ahamiyati shundaki, intizomiy ishlarni ko‘rish faqat mazmuniy baholashni emas, balki belgilangan vakolat, muddat, shikoyat va qaror qabul qilish tartibiga rioya etishni ham talab qiladi<sup>4</sup>.

Mutanosiblik prinsipining amaliy samarasi, avvalo, intizomiy jazo choralarining tizimli va bosqichli bo‘lishiga bog‘liq. Agar qonunchilikda faqat ogohlantirish va advokatlik faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan choralar mavjud bo‘lsa, intizomiy organning tanlov imkoniyati torayadi. Bunday holatda yengilroq kamchiliklar uchun jazo ta’sirsiz bo‘lishi yoki aksincha, o‘rtacha

<sup>3</sup>Council of Bars and Law Societies of Europe. (2008). Charter of Core Principles of the European Legal Profession and Code of Conduct for European Lawyers. [https://www.ccbe.eu/NTCdocument/EN\\_CCBE\\_CoCpdf1\\_1382973057.pdf](https://www.ccbe.eu/NTCdocument/EN_CCBE_CoCpdf1_1382973057.pdf)

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi adliya vaziri. (2025). O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqidagi buyruq, ro‘yxat raqami 3637. <https://lex.uz/uz/docs/-7619714>

og'irlikdagi xatti-harakatlar uchun haddan tashqari og'ir chora qo'llanishi xavfi yuzaga keladi. Shu bois intizomiy jazo tizimi ichida ogohlantirish, jarima, faoliyatni vaqtincha cheklash va eng og'ir choralar o'rtasida izchil mantiq bo'lishi maqsadga muvofiq.

Jazo tizimida oraliq choralar mavjud bo'lishi advokat mustaqilligini kamaytirmaydi, aksincha, uni asossiz og'ir javobgarlikdan himoya qiladi. Masalan, intizomiy jarima, majburiy malaka oshirish yoki kasb etikasi bo'yicha qo'shimcha o'quv kurslarida ishtirok etish kabi choralar advokatlik faoliyatini to'liq to'xtatmasdan, kasbiy mas'uliyatni kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin. Muhimi, bunday choralar aniq huquqiy asos va mezonlar bilan belgilanib, subyektiv qo'llash imkoniyati cheklanishi kerak.

Armaniston qonunchiligida advokatga nisbatan qo'llaniladigan intizomiy jazolar qatorida tanbeh, qat'iy tanbeh, qo'shimcha o'quv kurslarida qatnashish, jarima va litsenziyani bekor qilish kabi choralar nazarda tutilgan. Jazo tanlashda sodir etilgan buzilishning og'irligi, oqibatlari, advokatning shaxsi va boshqa holatlar inobatga olinishi belgilangan. Ushbu yondashuv intizomiy javobgarlikda bosqichlilik va mutanosiblikni ta'minlashga xizmat qiladi<sup>5</sup>.

Milliy tizimni takomillashtirishda xorijiy tajribani to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki uning konseptual jihatlarini milliy huquqiy muhitga moslashtirish muhimdir. O'zbekiston advokatura tizimida intizomiy javobgarlikning asoslari, malaka komissiyalarining vakolatlari, advokatlar palatasining tashkiliy o'rni va sud nazorati mexanizmi mavjud. Shu bois yangi yoki takomillashtirilgan intizomiy choralar ushbu tizimga mos, tushunarli va ijro etilishi mumkin bo'lgan shaklda joriy etilishi zarur.

Mutanosiblikni ta'minlashda qarorning asoslantirilganligi alohida ahamiyatga ega. Intizomiy komissiya qarorida qaysi majburiyat buzilgani, bu buzilish qanday dalillar bilan tasdiqlangani, qaysi yengillashtiruvchi yoki og'irlashtiruvchi holatlar inobatga olingani va aynan nima uchun muayyan jazo tanlangani aniq ko'rsatilishi lozim. Qarorning bunday asoslantirilishi advokatning shikoyat qilish huquqini samarali amalga oshirishga, yuqori organ yoki sud tomonidan nazorat qilishga va intizomiy amaliyotning bir xilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, intizomiy javobgarlikda shaffoflik va maxfiylik o'rtasida oqilona muvozanat saqlanishi kerak. Bir tomondan, advokatura intizomiy amaliyoti umumlashtirib borilishi, tipik xatolar va kasb etikasi buzilishlari bo'yicha tushuntirishlar berilishi advokatlar uchun profilaktik ahamiyatga ega. Ikkinchi tomondan, intizomiy ishda ishonch bildiruvchi shaxsga oid ma'lumotlar, advokatlik siri va shaxsiy ma'lumotlar himoya qilinishi zarur. Demak, ommaviylik individual ish materiallarini to'liq ochish orqali emas, balki umumlashtirilgan tahlil va anonimlashtirilgan amaliyot orqali ta'minlanishi maqsadga muvofiq.

Advokatlarning intizomiy javobgarligida mutanosiblik prinsipini ta'minlash uchun qonunchilikda baholash mezonlarini aniqroq belgilash zarur. Bunday mezonlar sifatida xatti-harakatning xususiyati, oqibatlari, ayb shakli, takroriylik, advokatning avvalgi intizomiy holati, zarar bartaraf etilgan-etilmagani, advokatning intizomiy ish yuritishdagi munosabati, shuningdek, advokatning mustaqil kasbiy pozitsiyasiga aralashuv xavfi mavjud-mavjud emasligi ko'rsatilishi mumkin. Ushbu mezonlar intizomiy organning ixtiyorini mutlaqo yo'q qilmaydi, biroq uni qonuniy va adolatli chegaralarga soladi.

Yana bir muhim masala intizomiy javobgarlikni advokatning protsessual faolligi bilan adashtirmaslikdir. Advokat sudda yoki tergov jarayonida qat'iy pozitsiya bildirishi, iltimosnoma kiritishi, e'tiroz qilishi, mansabdor shaxs harakatlari ustidan shikoyat qilishi uning kasbiy

<sup>5</sup> Republic of Armenia. (2004). Law of the Republic of Armenia on the Profession of Advocate. OSCE Legislationline. <https://legislationline.org/taxonomy/term/13997>

vazifasidir. Bunday faoliyat faqat u haqorat, yolg'on ma'lumot tarqatish, advokatlik siri buzilishi yoki kasb etikasi qoidalariga zid xatti-harakat bilan birga kechgan taqdirdagina intizomiy baholanishi mumkin. Aks holda, intizomiy javobgarlik himoya funksiyasini susaytiruvchi vositaga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, mutanosiblik prinsipi advokatlarning intizomiy javobgarligi tizimining markaziy mezonlaridan biri bo'lishi lozim. Ushbu prinsip intizomiy javobgarlikni adolatli, asoslantirilgan va kasbiy mustaqillikka mos tarzda qo'llashga xizmat qiladi. U advokatning javobgarligini inkor etmaydi, balki javobgarlikni huquqiy davlat talablariga mos ravishda chegaralaydi.

Shu bois advokatura qonunchiligida intizomiy jazo choralarini tanlash mezonlarini yanada aniqlashtirish, oraliq va profilaktik ta'sir choralarini rivojlantirish, qarorlarni asoslantirish talablarini kuchaytirish, intizomiy amaliyotni umumlashtirish va advokatning protsessual kafolatlarini mustahkamlash maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv advokatura institutining obro'sini oshirish, ishonch bildiruvchi shaxs huquqlarini himoya qilish va advokatlarning kasbiy mustaqilligini kafolatlashga xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. O'zbekiston Respublikasi. (1996). Advokatura to'g'risidagi Qonun. <https://lex.uz/docs/-54503>
2. United Nations. (1990). Basic Principles on the Role of Lawyers. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/basic-principles-role-lawyers>
3. Council of Bars and Law Societies of Europe. (2008). Charter of Core Principles of the European Legal Profession and Code of Conduct for European Lawyers. [https://www.ccbe.eu/NTCdocument/EN\\_CCBE\\_CoCpdf1\\_1382973057.pdf](https://www.ccbe.eu/NTCdocument/EN_CCBE_CoCpdf1_1382973057.pdf)
4. O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri. (2025). O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari huzuridagi malaka komissiyalari to'g'risida nizomni tasdiqlash haqidagi buyruq, ro'yxat raqami 3637. <https://lex.uz/uz/docs/-7619714>
5. Republic of Armenia. (2004). Law of the Republic of Armenia on the Profession of Advocate. OSCE Legislationline. <https://legislationline.org/taxonomy/term/13997>
6. International Bar Association. (2011). International Principles on Conduct for the Legal Profession. <https://www.ibanet.org/MediaHandler?id=e067863f-8f42-41d8-9f48-d813f25f793c>